



UDK:911.3:338.46(575.111)

Dilfuza Q. YAXSHIMURATOVA,
tayanch doktorant (Phd)
O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O'zbekiston
E-mail: murodova1114d@gmail.ru, Orcid: 0009-0009-2002-5225

CHDPU dotsenti Sh.Qurbonov taqrizi asosida

THE DEVELOPMENT AND TERRITORIAL ORGANIZATION OF PUBLIC SERVICES IN TASHKENT

Annotation

This article analyzes the scientific and theoretical issues of the development and territorial organization of public service sectors in the city of Tashkent. The areas of public service, development factors and geographical features are studied on a scientific basis. Also, proposals are made on the territorial organization of public service sectors and directions for its improvement.

Keywords: Areas of service provision to the population, development factors, geographical features, service sector, social sectors, territorial organization.

РАЗВИТИЕ И ТЕРРИТОРИАЛЬНАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ СФЕРЫ УСЛУГ ДЛЯ НАСЕЛЕНИЯ В ГОРОДЕ ТАШКЕНТЕ

Аннотация

В данной статье анализируются научно-теоретические вопросы развития и территориальной организации сферы обслуживания населения в городе Ташкенте. На научной основе изучаются сферы обслуживания населения, факторы развития и географические особенности. Также будут внесены предложения по территориальной организации сферы обслуживания населения и направлениям ее совершенствования.

Ключевые слова: Направления оказания услуг населению, факторы развития, географические особенности, сфера услуг, социальные сферы, территориальная организация.

TOSHKENT SHAHRIDA AHOLIGA XIZMAT KO'RSATISH SOHALARINING RIVOJLANISHI VA HUDUDIIY TASHKIL ETILISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Toshkent shahrida aholiga xizmat ko'rsatish sohalarining rivojlanishi va hududiy tashkil etilishining ilmiy-nazariy masalalari tahlil qilinadi. Aholiga xizmat ko'rsatish sohalar, rivojlanish omillari hamda geografik xususiyatlari ilmiy asosda o'rganiladi. Shuningdek, aholiga xizmat ko'rsatish sohalarining hududiy tashkil etilishi hamda uni takomillashtirish yo'nalishlari bo'yicha takliflar beriladi.

Kalit so'zlar: Aholiga xizmat ko'rsatish sohalar, rivojlanish omillari, geografik xususiyatlari, xizmatlar sohasi, Ijtimoiy sohalar, hududiy tashkil etish.

Kirish. Hozirgi kunda aholiga xizmat ko'rsatish sohalar, xususan xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Bu sohalar, o'z navbatida, murakkab bo'lib, ular ta'lim, sog'liqni saqlash, maishiy xizmat ko'rsatish, umuman olganda, turli xildagi savdo va transportdan tortib bank-moliyalashtirish, sug'urtalash va har xil turdagi vositachilikka qadar keng faoliyat doirasini qamrab oladi. Aynan shu tarmoq iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda band bo'lganlar soni bo'yicha iqtisodiyotning asosiy qismini tashkil qiladi. Shahar joylarda, xususan, yirik shaharlar, eng avvalo, aholi yashaydigan joy, sotsial muhit hisoblanadi. Bunday joylarda kishilar dam oladi, davolanadi, o'qiydi, umuman olganda istiqomat qiladi. Shu bois, ijtimoiy sohalarining rivojlanishi ham katta ahamiyatga ega [4].

Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil turdagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Ijtimoiy sohalar rivojlanishida, ayniqsa aholiga pullik xizmat, chakana savdo ham katta ahamiyatga ega. Jami xizmatlar ko'rsatishda umumiy qonuniyat shundan iboratki, viloyat markazlari, yirik shaharlar yoki poytaxtga tutash ma'muriy birliklarda (qishloq tumanlarda) ijtimoiy sohalar ko'rsatkichlari past darajada bo'lishi mumkin. Chunki, aholi mazkur sohalaridagi ehtiyojlarini bevosita tanlash imkoniyati yuqori bo'lgan o'zlariga yaqin bo'lgan "markazlarda" qondiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xizmat ko'rsatish sohalar va ularda aholi bandligining hududiy xususiyatlari hamda unga ta'sir etuvchi omillar turli davrlarda dunyoning ko'plab mamlakatlari olimlari tomonidan o'rganilgan. Uzoq xorij va MDH mamlakatlarida J.Graunt, A.Smit, A.Giyyar, V.Leontev, G.Bekker, R.Xoll, P.Deymond, D.Mortensen, X.Lemann, K.Pissarides, K.Simmerman, X.Raynerlar, G.Strumilin, A.Ya.Boysarskiy, T.I.Zaslavskaya, D.Breyev, Ye.V.Kasimovskiy, B.I.Kononenko, E.R.Saruxanov, V.A.Borisov, D.I.Valentey, P.Litvyakov, Ye.Chernova, A.Kotlyar, A.G.Vishnevskiy, V.Ye.Gimpelson kabi olimlarning ilmiy ishlari mazkur masalalarga bag'ishlangan. O'zbekistonda aholi bandligi, xizmat ko'rsatish sohalarining hududiy joylashuvi, rivojlanish omillari kabi masalalar bilan M.Q.Qoraxonov, M.R.Mullajonov, A.A.Abdug'aniyev, Q.X.Abdurahmonov, A.R.Vaxobov, E.A.Ahmedov, B.X.Umurzakov, N.Xo'jayev, Sh.R.Xolmo'minov, R.A.Ubaydullayeva, G.K.Saidova, T.I.Raimov, A.A.Qayumov, O.B.Ata-Mirzayev, A.S.Soliyev, M.R.Bo'riyeva, M.I.Nazarov, Z.N.Tojiyeva, Z.A.Tolametova, R.B.Qodirov, I.Otajanov, G.Xodjayeva, G.Utepova, N.N.Yuldashev, L.Z.Ibragimov va boshqa olimlar shug'ullanishgan. Ularning ilmiy izlanishlari respublikamizda xizmat ko'rsatish sohalar va aholi bandligini ta'minlashning nazariy jihatlariga bag'ishlangan bilan alohida ahamiyat kasb etadi

Tadqiqot metodologiyasi. Statistik tahlil jarayonida Toshkent shahrida xizmat ko'rsatish sohasiga oid 2020-2024 yillardagi ma'lumotlar yig'ilib, chuqur tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. Toshkent shahri xizmatlar sohasining yuqori o'sish sur'atlari, boshqa hududlardan farqli ravishda, aholining real daromadlari yuqoriligi bilan bog'liq. Bundan tashqari, yakuniy iste'mol tovarlari ishlab chiqarish uchun infratuzilmani rivojlantirish, ushbu hududda turli xil xizmat turlarini ko'paytirish uchun turtki hisoblanadi. Xizmatlarning umumiy hajmida Toshkent shahrining ulushi eng ahamiyatli bo'lib, 33,1 % ni tashkil etadi. Shuningdek, eng katta ulush Toshkent (7,2 %), Samarqand (6,5 %), Farg'ona (6,0 %) va Andijon (5,2 %) viloyatlarida qayd etilgan.

2024-yilning yanvar-avgust oylari ma'lumotlariga ko'ra, Toshkent shahrida bozor xizmatlari tuzilmasida asosiy ulush savdo, moliyaviy, transport va yashash/ovqatlanish xizmatlariga to'g'ri keladi. Shahar bo'yicha jami xizmatlar hajmi yuqori sur'atlarda o'sib, yirik tumanlar yetakchilik qilmoqda.

Toshkent shahri tumanlari kesimida bozor xizmatlari tuzilmasi (taxminiy tarkib, % da):

- Savdo xizmatlari: Umumiy hajmning eng katta ulushini tashkil etadi (ayniqsa, Chilonzor, Uchtepa va Mirobod tumanlarida yirik bozorlar va savdo majmualari hisobiga).

- Moliyaviy xizmatlar: Shayxontohur, Mirobod va Yunusobod tumanlari yetakchi (banklar va ofis markazlari joylashgani sababli).

- Transport va aloqa xizmatlari: Shahar bo'ylab nisbatan yuqori va tekis taqsimlangan.

- Yashash va ovqatlanish xizmatlari: Markaziy tumanlar (Mirobod, Shayxontohur) va turistik hududlarda yuqori ulushga ega.

Shaharning turli joylarida katta-katta bozor va yarmarkalar tashkil etilgan: Qo'yliq, Farhod, Parkent, Chorsu, Oloy, Yunusobod, Sergeli va boshqalar shular jumlasidandir. Ular nafaqat Toshkent xalqiga, balki respublikamizning boshqa hududlariga ham savdo-sotiq ishlarini bajaradi.

Shuningdek, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar moliyaviy xizmatlar -32,1 %, transport xizmatlari -9,5 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari -10,3 %, ta'lim sohasidagi xizmatlar bo'yicha -4,6 % bo'lgan.

Ta'kidlash joizki, aholiga xizmat ko'rsatish sohaslarini joylashtirish pog'onasimon, ierarxiyalı, tizimli tashkil etiladi. Bunda, eng avvalo, aholi joylashuvi, aholi manzilgohlarining katta-kichikligi, ularning funksiyasi va transport bilan ta'minlanish darajasi asosiy o'rin egallaydi. Bu V.Kristallarning "markaziy joylar" g'oyasiga binoan, mayda aholi punktlarida xizmat ko'rsatishning eng qo'yi bosqichi joylashadi, kattalashib borgan sari ularda tashkil etilgan bu sohalarga tegishli ob'ektlar ham kattalashib boradi.

Masalan, ta'lim tizimida aholi punktlarining kattalashib borishi bilan maktablar soni, turi va to'ri o'zgarib boradi: maktabgacha ta'lim - boshlang'ich maktab - o'rta maktab - kollej va akademik litsey - oliy o'quv yurtlari va akademiyalar shaklida bo'lishi mumkin. Shunga o'xshash, sog'liqni saqlash tizimida odatda, tibbiy punkt - qishloq vrachlik punktlari (QVP) - poliklinika - tuman kasalxonasi - tug'ruqxona ko'rinishida bo'ladi. Ixtisoslashgan kasalxonalar va tashxis markazlari esa ko'proq shaharlarda tashkil etiladi [12]. Aholiga savdo xizmatini ko'rsatish ham shu tarzda, ya'ni pog'onasimon (ierarxiya ko'rinishida) hududiy tashkil etiladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, markaziy joylar g'oyasining amalga oshishida aholi soni, joylashuvi bilan bir qatorda hududning tabiiy (rel'ef), iqtisodiy shart-sharoitlari, transport infratuzilmasi bilan ta'minlanganligi ham katta rol o'ynaydi. Shulardan kelib chiqqan holda, Xorazm viloyatining geodemografik vaziyati va ijtimoiy sohalar rivojlanishi o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Ijtimoiy sohalar orasida ta'lim, sog'liqni saqlash, savdo, pullik xizmatlar hamda maishiy xizmat ko'rsatish muhim o'rin tutadi. Ma'lumki, har bir mamlakat, mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida uning ta'lim tizimi alohida mavqega ega. Chunki, mamlakat istiqboli, yosh avlod kelajagi, ularning intellektual salohiyati bevosita ta'lim tizimiga bog'liq.

Respublikamizda umumiy o'rta ta'limning muddati 11 yil bo'lib, uzluksiz ta'lim tizimining majburiy mustaqil turi hisoblanadi. Umumiy o'rta ta'lim umumta'lim muassasalarida uzluksiz tarzda, majburiy bo'lgan o'n bir yil davomida amalga oshiriladi. Shuningdek, umumiy o'rta ta'lim uch bosqichdan iborat bo'lib, kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi.

Umumta'lim muassasalarining quyidagi turlari mavjud: boshlang'ich maktab, umumiy o'rta ta'lim maktabi, ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab, ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab-internat, ijod maktabi, Prezident maktabi, olimpiya va milliy sport turlari bo'yicha davlat ixtisoslashtirilgan maktab-internati, jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internat, psixik (intellektual) rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan (yordamchi) maktab, maktab-internat, sanatoriy turidagi ixtisoslashtirilgan maktab-internat, respublika ixtisoslashtirilgan o'quv-ta'lim muassasasi.


Toshkent shahrida 2024/2025 o'quv yili boshida faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari soni 488 tani tashkil etgan va 2020/2021 o'quv yili boshiga nisbatan 127 taga, ya'ni 35,2 % ga oshgan.

Faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari soni
(tegishli o'quv yili boshiga, birlik)



Manba: Toshkent shahar statistika boshqarmasi ma'lumotlari.

Toshkent shahrida 2020/2021 – 2024/2025 o'quv yillarida umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar sonining o'sishi kuzatilgan. Ushbu davrda o'quvchilarning umumiy soni 549,9 ming kishiga, ya'ni 13 % ga ko'paygan.



Manba: Toshkent shahar statistika boshqarmasi ma'lumotlari.

Ushbu davrda qiz bolalar soni 33,1 ming nafarga, ya'ni 14,6 % ga, o'g'il bolalar soni esa 38,5 ming nafarga, ya'ni 15,3 % ga oshgan.

Toshkent shahrining barcha tumanlarida o'g'il bolalar soni qiz bolalar sonidan o'rtacha 5,4 % ga ortadi. O'quvchilarning eng ko'p qismi Yunusobod (68,4 ming), Olmazor (63,5 ming) va Mirzo Ulug'bek (62,1 ming) tumanlarida qayd etilgan, eng kam esa Bektemir (13,0 ming) va Yakkasaroy (21,5 ming) tumanlariga to'g'ri kelgan. O'g'il va qiz bolalar o'rtasidagi eng sezilarli tafovut Bektemir tumanida bo'lgan (o'g'il bolalar – 44,6 %, qiz bolalar – 55,4 %), boshqa hududlarda o'g'il va qiz bolalar nisbati taxminan bir xil.


2024-yilda Toshkent shahridagi umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining IX sinf bitiruvchilari soni 46,5 ming kishini tashkil etgan va 2020-yilga nisbatan ularning soni 9,1 ming kishiga, ya'ni 24,3 % ga, XI sinf bitiruvchilari soni esa, 2024-yilda 2020-yilga nisbatan 6,6 ming kishiga, ya'ni 22,4 % ga ko'paygan.

Aholining ta'lim olishi, mehnat qilishi bevosita uning sog'ligi bilan bog'liq. Bu esa mamlakatimizda sog'liqni saqlash tizimining faoliyati, davlat tomonidan bu sohaga qaratilgan siyosatda o'z aksini topgan.

Ma'lumki, tibbiyot muassasalari har bir hududning ichki xususiyati, ya'ni kasalliklarning turi va tarqalganligiga mos holda tashkil etiladi. Masalan, Quyi Amudaryo mintaqasida bevosita ekologiyaga bog'liq holda buyrak, siydik-ayirish tizimi kasalliklari, jigar-o't qobig'i, shuningdek, suyak-muscul, ruxiy buzilishlar kasalliklari ko'proq uchraydi. Taqqoslash natijalari ko'rsatishicha, ovqat hazm qilish organlari kasalliklari eng ko'p uchraydi. Bu, o'z navbatida, noto'g'ri ovqatlanish hamda hazm qilishi qiyin bo'lgan non va non mahsulotlarini ko'plab iste'mol qilish bilan bog'liq [9].


Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan shifoxona muassasalari sonini qo'shgan holda, 2024-yil 1-yanvar holatiga shifoxona muassasalari soni 167 tani tashkil etdi, bu esa 2020- yil 1-yanvarga nisbatan 21 tagacha oshgan.

Toshkent shahrida shifoxona muassasalari soni* (2024 yil 1 yanvar holatiga, birlik)



Manba: Toshkent shahar statistika boshqarmasi ma'lumotlari.

Toshkent shahrida shifoxona muassalarining tumanlar bo'yicha taqsimlanishi (2024- yil 1- yanvar holatiga, birlik)



Manba: Toshkent shahar statistika boshqarmasi ma'lumotlari.

2024-yil 1-yanvar holatiga tumanlar kesimida eng ko'p mulkchilik shakli bo'yicha, kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan shifoxona muassasalari soni Yunusobod tumanida (13 ta), Olmazor (12 ta) va Chilonzor (11 ta) tumanlarida qayd etilgan, boshqa tumanlar bilan solishtirganda, eng past ko'rsatkichlar Bektimir (2 ta) hamda Sergeli (3 ta) tumanlarida kuzatilgan.

Toshkent shahrida ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni yildan-yilga barqaror o'sib bormoqda. Ularning o'sishi 2020-yildan 2024-yilgacha bo'lgan davrda 26 % ni tashkil etdi. Tumanlar kesimida eng ko'p Toshkent shahrida ambulatoriya - poliklinika muassasalari soni Yunusobod (190 ta), Chilonzor (160 ta) tumanlarida qayd etilgan, boshqa tumanlar bilan solishtirganda, eng past ko'rsatkichlar Bektimir (12 ta), Yangiheyot (20 ta) tumanlarda ko'rsatilgan.

Umuman olganda, tumanda markazlashgan va respublika ahamiyatidagi kasalxonalar, sanatoriya va boshqa sog'liqni saqlash muassasalari mavjud. Mavjud sihatgohlar zamonaviy jihozlar bilan ta'minlangan, ularda bemorlar va dam oluvchilarga yuqori darajada xizmat ko'rsatiladi.

Xulosa va takliflar. Poytaxt shaharda aholi yashashi va turmush tarzini yaxshilash uchun qulay, sog'lom sharoit yaratish maqsadida o'ziga xos "sotsial muhit" sifatida rivojlantirish talab etiladi. Buning aholining mehnat qilishi, o'qishi, davolanish va dam olishi kabi talab va ehtiyojlarini imkon qadar zamon talabi darajasida to'la qondirish sharoitlarini tashkil etish ijtimoiy samaradorlikni ta'minlaydi. Shu bilan bir qatorda, xizmat ko'rsatish sohasi ko'p tarmoqli va bir vaqtning o'zida bir necha yo'nalishda faoliyat olib boruvchi soha. Ushbu sohada doimiy tarzda o'zaro milliy iqtisodiyotning boshqa sohalari bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar sodir bo'ladi va rivojlanib boradi. Xizmat ko'rsatish sohasi, bir tomondan, milliy iqtisodiyotning boshqa soha hamda tarmoqlariga, ularning holati va rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, uning rivojlanish imkoniyatlari hamda istiqbollari boshqa soha va tarmoqlar dinamikasi bilan belgilanadi. Xulosa qilib aytganda, olib borilgan tahlil ma'lumotlaridan Toshkent shahrida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish, sohaning innovatsion asoslarini kuchaytirish, xizmat ko'rsatishning yangi turlari va shakllarini keng joriy qilish, xizmat ko'rsatish sohasini kengaytirish orqali mikro va makro darajada barqarorlik ko'rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilash kabi yo'nalishlarda keng qamrovli tadbirlar amalga oshirilgani aniqlandi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Toshkent shahri o'zining iqtisodiy, ijtimoiy hamda demografik salohiyati bo'yicha poytaxt tumanlari orasida o'ziga xos va mos o'rinni egallagan. Kelajakda tumanning demografik, xususan mehnat resurslaridan samarali foydalanish, infratuzilma shahobchalarini yanada rivojlantirish orqali aholining turmush darajasini oshirish imkoniyatlariga erishiladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 oktabrdagi PF-5863-son "2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof muhitini muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'rida"gi Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 20 oktabrdagi 841-son "2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasini o'rganish. - T., 2001, b. 267.
4. O'zbekiston SSR ma'muriy - territorial bo'linishi. - Toshkent, 1981. - 335 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezigulik va bunyodkorlik - milliy g'oyamizning poydevoridir. -Toshkent, "O'zbekiston", 2017.
6. Soliev A.S. Shaharlar geografiyasi. Ma'ruzalar matni - T.: O'zMU, 2000. - 38 b.
7. Soliev A. va boshqalar. Mintaqaviy iqtisodiyot.- T.: O'zMU, 2003. - 304 b.
8. Qurbonov Sh.B. Kichik hududlar ijtimoiy- iqtisodiy geografiyasi. - T.: Mumtoz so'z, 2013, - 162 b.
9. Nazarov.M, Tojiyeva.Z. Ijtimoiy geografiya. Toshkent. 2003.
10. Soliev.A, Qarshiboyeva .L. Iqtisodiy geografiyaning nazariy va amaliy masalalari. Toshkent. 1999.